

O'ZBEKISTON MILLIY STANDARTI

**Turizm xizmatlari.
Modulli mehmonxonalar.
Tasniflash tizimi**

Rasmiy nashr

So‘z boshi

1. O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo‘mitasi huzuridagi STQ 4 “Turizm sohasida standartlashtirish” texnik qo‘mitasi va “Turizm xizmatlarini sertifikatlash markazi” Davlat unitar korxonasi TOMONIDAN ISHLAB CHIQLDI.

2. O‘zbekiston standartlar institutining 2024-yil 19-iyundagi 20/MSt-sonli buyrug‘i bilan TASDIQLANDI.

3. DASTLABKI AMALGA KIRITILISHI

Ushbu milliy standartni va unga bo‘lgan o‘zgartishlarni O‘zbekiston hududida amalga kiritish, qayta ko‘rib chiqish yoki bekor qilish haqidagi axborot Standartlashtirish bo‘yicha milliy organning rasmiy veb-saytlari va standartlarning yillik axborot ko‘rsatkichlarda chop etiladi

Ushbu standartni O‘zbekiston hududida rasmiy tarqatish mutlaq huquqi O‘zbekiston standartlar institutiga tegishli

Mundarija

1	Qo‘llanish doirasi	1
2	Standartlarga havolalar	1
3	Atamalar va ta’riflar	1
4	Modulli mehmonxonalarni tasniflash.....	1
5	A ilova	3

O'ZBEKISTON MILLIY STANDARTI

**Turizm xizmatlari.
Modulli mehmonxonalar.
Tasniflash tizimi.**

**Туристские услуги.
Модульные гостиницы.
Система классификации.**

**Tourist service.
Modular hotels.
Grading scheme.**

Amalga kiritish sanasi: 2024-yil 19-avgust

1 Qo'llanish doirasi

Ushbu milliy standart modulli mehmonxonalarni tasniflash tizimini belgilaydi.

Standart, sertifikatlashtirish organlari tomonidan turistik xizmatlarni sertifikatlashtirish maqsadida va turli mulk shakliga ega korxonalar tomonidan mehmonxona xizmatlari ko'rsatilishi vaqtida qo'llash uchun yaroqlidir.

2 Standartlarga havolalar

Ushbu milliy standartda quyidagi standartlarga qilingan havolalardan foydalanildi:

O'z DSt ISO 18513:2017 Turizm xizmatlari. Mehmonxona va turistlarni joylashtirish vositalarining boshqa turlari. Atamashunoslik.

O'z DSt 3220:2023 Turizm xizmatlari. Joylashtirish vositalari. Umumiy talablar

Изоҳ - Ushbu standartdan foydalanishda Standartlashtirish bo'yicha milliy organning rasmiy veb-saytlari va standartlarning yillik axborot ko'rsatkichlariga muvofiq standartlarni O'zbekiston Respublikasi hududida amal qilinishi tekshirilishi kerak. Agar havola qilingan standart almashtirilgan (o'zgartirilgan) bo'lsa, unda ushbu standartdan foydalanishda almashtirilgan (o'zgartirilgan) standartga amal qilish kerak. Agarda havola qilinayotgan standart almashtirilmasdan bekor qilingan bo'lsa, unga havola qilingan qoida ushbu havolaga taalluqli bo'lmagan qismida qo'llaniladi

3 Atamalar va ta'riflar

Ushbu milliy standartda O'z DSt ISO 18513 va O'z DSt 3220 da keltirilgan atamalar, shuningdek tegishli ta'riflar bilan quyidagi atamalar qo'llanilgan:

3.1 tasniflash tizimi: Binolar, jihozlar, nomenklatura va taqdim qilinayotgan xizmatlar hamda xizmat ko'rsatish darajasiga doir talablar majmuiga asoslangan tegishli toifani joylashtirish vositalariga berish uchun taqdim qilinayotgan mehmonxona xizmatlarining sifatini baholash tizimi.

3.2 mehmonxona toifasi: Ma'lum talablar majmui bilan tavsiflanadigan tasniflash guruhlanishi.

4 Modulli mehmonxonalarni tasniflash

4.1 Modulli mehmonxonalar O'z DSt 3220 talablariga muvofiq bo'lishi kerak.

4.2 Modulli mehmonxonalarni toifalar bo‘yicha tasniflash quyidagilarga doir talablar majmuiga asoslangan:

- binolar va unga tutash hudud;
- texnik jihozlar va asbob-uskunalar;
- nomerlarning sanitar-gigiyenik jihozlanganligi;
- nomerlarning texnik jihozlanganligi;
- nomerlarni mebel va inventar bilan jihozlanganligi;
- umumiy foydalanish uchun sanitariya obyektlari;
- jamoat joylari;
- xizmatlar;
- ovqatlanish xizmatlari;
- xodimlar va ularning tayyorgarligiga doir talablar.

4.3 Toifalar rim raqami bilan belgilanadi va uchta «**I**», «**II**», va «**III**» toifa bo‘yicha tasniflanadi. Eng yuqori toifa «**I**» (birinchi), eng past «**III**» (uchinchi) toifa hisoblanadi.

4.4 Tasniflash talablarining ro‘yxati A ilovada keltirilgan.

4.5 Modulli mehmonxona binolari va xonalarining jihozlari, inshootlari, asbob-uskunalari va inventari belgilangan funksional talablarga muvofiq bo‘lishi kerak.

4.6 Modulli mehmonxona binolari va xonalarining jihozlari, inshootlari, asbob-uskunalari va inventarida aniqlangan nosozliklarni bartaraf etish bo‘yicha o‘z vaqtida choralar ko‘rilishi kerak.

4.7 Axborot ta‘minoti, reklama va boshqa maqsadlarda tegishli toifadan foydalanish, belgilangan tartibda olingan muvofiqlik sertifikatiga binoan, modulli mehmonxonaga berilgan tegishli toifa asosida amalga oshirilishi kerak.

A ilova
(normativ)
Turli toifadagi modulli mehmonxonalarga doir talablar

	Talab	Toifa		
		«III»	«II»	«I»
Bino va unga tutash hudud ³⁾				
1	Kunning qorong‘i vaqtida bino va unga tutash hududning tashqi yoritgichlarining mavjudligi			+
2	Avtotransportni qisqa vaqt to‘xtab turishi uchun maydoncha			+
3	Restoranga (kafe, barga) alohida kirish yo‘li bo‘lganda – uning nomi yozilgan taxtacha		+	+
4	Imkoniyati cheklangan insonlar harakatlanishi uchun pandusning mavjudligi va to‘siqlarning yo‘qligi	+	+	+
5	Mehmonlar uchun kirish:			
	- joylashtirish vositasidan restoranga (kafe, barga)	+	+	+
	- xizmatchilar kirish yo‘lidan alohida	+	+	+
Texnik jihozlar va asbob-uskunalar ³⁾				
6	Avariya asbob-uskunolari va energiya ta‘minoti:			
	- avariya asbob-uskunolari (akkumulatorlar, fonarlar)	+	+	+
	- texnik loyihaga binoan ko‘chmas generator mavjudligi: 24 soat davomida asosiy yoritishni va asosiy jihoz ishini ta‘minlaydi; ⁴⁾			+
7	Suv ta‘minoti:			
	- avariya, profilaktik ishlar vaqtida issiq suv ta‘minotining zaxira tizimidan issiq suv			+
	- ichimlik suvining sifati va xavfsizligiga kafolat berish ²⁾	+	+	+
	Izoh: 1 «+» belgisi talabning bajarilishi majburiyligini bildiradi. 2 “+*” indekslar uchun izohlar jadvalning oxirida keltirilgan.			
8	Butikalarga qadoqlangan ichimlik suvi (yashash narxiga kiritilgan):			
	- nomerda	+	+	+
9	Jamoat va yashash joylarini isitish	+	+	+
10	Yil bo‘yi barcha xonalarda havoni me‘yorga keltirish (konditsiyalash) tizimining mavjudligi	+	+	+
11	Jamoat hududlari va yashash qavatlarining yo‘laklarida qo‘riqlash signalizatsiyasi yoki video kuzatuv			+
12	Ichki radio eshittirish	+	+	+
13	Internet (WI-FI)			

	- jamoat joylarida			+
	- barcha nomerlarda	+	+	+
Nomerlarning sanitar-gigiyenik jihozlanganligi ³⁾				
14	Nomerda vannali yoki dush xonali to'liq sanuzel	+	+	+
15	Bide yoki unitaz uchun gigiyenik dush:			
	- kamida 50 % nomerlarda	+		
	- kamida 75 % nomerlarda		+	
	- barcha nomerlarda			+
16	Ko'zgu:			
	- katta o'lchamdagi bet-qo'l yuvgich tepasida yoki ko'zguli devor	+	+	+
	- soqol olish va makiyaj uchun, kosmetik			+
17	Oyoq uchun gilamcha/paxmoq sochiq	+	+	+
18	Soch quritish uchun fen	+	+	+
19	Sochiqlar (har bir mehmonga):			
	- ikkitadan kam emas (qo'l va hammom uchun)	+	+	
	- uchttadan kam emas (ikkita qo'l va bitta hammom uchun)			+
20	Hammom xalati (har bir mehmon uchun)		+	+
21	Hammom shippagi (har bir mehmon uchun)		+	+
22	Pardoz-andoz buyumlari (har bir mehmon uchun):			
	- atir sovun, shampun va yuvinish uchun gel	+	+	+
	- hammom qalpoqchasi, tish pastasi va cho'tkasi, taroq			+
	- joylashtirish vositasi nomi yoki ishlab chiqaruvchi brendi bilan firma qadog'ida			+
23	Pardoz-andoz buyumlarini almashtirish:			
	- kun ora va iltimosga ko'ra	+	+	+
	- har kuni va iltimosga ko'ra			+
24	Qo'l sochiqlar:			
	- qog'ozli	+	+	+
	- paxmoq			+
Nomerlarning texnik jihozlanganligi ³⁾				
25	Eshiklar va qulflar:			
	- ichki saqlagichli	+	+	+

	- elektron qulflar			+
26	Yoritish:			
	- xonalarda shift, devor yoki polda turadigan chiroqdan	+	+	+
	- krovat oldidagi chiroq	+	+	+
	- stol ustidagi chiroq			+
	- bet-qo‘l yuvgich tepasidagi chiroq	+	+	+
27	Elektr rozetkalar:			
	- kuchlanishni ko‘rsatish bilan	+	+	+
	- turli pazli rozetkalar borligi yoki universal adapter borligi (so‘rovga ko‘ra)			+
28	Konditsionerlar (devordagi, shiftdagi yoki boshqa)	+	+	+
29	Telefon va nomerdan telefon aloqasi:			
	- 100 % nomerlarda ichki (joylashtirish vositasining tashqarisiga chiqmasdan) yoki xizmat ko‘rsatish xodimlarni chaqirish tugmasi	+		
	- 100 % nomerlarda ichki (joylashtirish vositasining tashqarisiga chiqmasdan)		+ 1)	+ 1)
30	Televizor:			
	- 32 duym va undan yuqori bo‘lgan diagonalli	+	+	
	- 43 duym va undan yuqori bo‘lgan diagonalli			+
	- dunyo telekompaniyalarining asosiy dasturlari translyatsiyasi bilan	+	+	+
31	Sovitgich/mini bar (barcha nomerlarda)			+
	“yuqori toifali” nomerlarda	+	+	+
32	Choy va kofe tanlovi bilan elektr choynak			+
33	Mini-seyf (elektr qulfli)	+	+	+
Nomerlarni mebel va inventar bilan jihozlanganligi ³⁾				
34	Krovat (minimal o‘lchamlar):			
	- bir kishilik 80×190 cm	+	+	
	- bir kishilik 90×200 cm			+
	- ikki kishilik 160×190 cm	+	+	
	- ikki kishilik 180×200 cm			+
	- bolalar krovatlari (iltimosga ko‘ra), joylashtirish vositasida nomer fondi sonidan 2 % dan kam bo‘lmasligi (lekin kamida bir krovat)	+	+	+

35	Krovatlar soniga ko'ra yotoq buyumlari va choyshablari to'plami: g'ilofili to'shak, yostiqlik ikkita yostiq (har bir mehmonga), ko'rpa, qo'shimcha ko'rpa, krovat yopinchi, choyshab va ko'rpajild	+	+	+
36	To'shak balandligi quyidagilardan kam emas:			
	- 13 cm	+	+	
	- 18 cm			+
37	Tabiiy matolardan yotoq choyshablari (zig'ir, paxta, ipak)	+	+	+
38	Krovat oldidagi gilamcha: gilam yoki gilamli qoplama yo'qligida har bir krovat oldida	+	+	+
39	Gilamlar yoki polning gilamli qoplamalari			+
40	Tokchali, ilgakli va kiyimosgichli shkaf (5 dona/joydan kam emas)	+	+	+
41	Stul	+	+	+
42	Dam olish uchun kreslo:			
	- nomerga	+	+	
	- har bir mehmonga			+
43	Stol/yo'zuv stoli	+	+	
44	Yo'zuv stoli			+
45	Bo'y baravar ko'zgu	+	+	+
46	Kombinatsiyalangan ochqich (butilka ochish uchun)	+	+	+
47	Kuldon (chekuvchilar nomeri uchun)	+	+	+
48	Nomerdagi axborot materiallari:			
	- ingliz tilida;			+
	- telefon ma'lumotnomasi;	+	+	+
	- taqdim etiladigan xizmatlar ro'yxati;	+	+	+
	- turistik va boshqa ma'lumotli reklama materiallari (bukletlar, risolalar va boshqa)		+	+
49	Cho'tkalar: kiyim, oyoq kiyim uchun	+	+	+
50	Kirxona uchun xaltalar	+	+	+
Umumiy foydalanish uchun sanitariya obyektlari ³⁾				
51	Umumiy foydalanish uchun hojatxona jihozlari:			
	- hojatxona kabinalari, issiq va sovuq suvli bet-qo'l yuvgich (aralashtirgich), ko'zgu, elektr rozetka, suyuq sovunli dispanser, hojatxona qog'ozi (zaxira o'rami bilan), kiyim uchun ilgaklar, chiqindi uchun savat	+	+	+
	- qog'oz sochiqlar (yoki elektr sochiq)	+	+	+

52	Sanitariya xonalarini sopol yoki marmar plitalar bilan qoplash/yopish (devorlar va pollarni)	+	+	+
Jamoat joylari ³⁾				
53	Jamoat joylari joyning funksional belgilanishiga mos bo'lgan mebel va boshqa jihozlarga ega bo'lishi kerak	+	+	+
54	Yo'laklarda videokameralar			+
55	Qabul qilish va joylashtirish uchun mahsus ajratilgan hudud/joy:			
	- gazeta va jurnalli jurnal stolchalari hamda stullar	+	+	
	- gazeta va jurnalli jurnal stolchalari hamda kreslolar, divanlar			+
	- gilamlar, gilamli yoki boshqa pol qoplamasi			+
	- musiqiy eshittirish			+
	- ilgaklar	+	+	+
	- oyoq kiyimni tozalash uchun avtomat		+	+
56	Asosiy dasturlarni translyatsiyasi bilan diagonali 43 duymdan kam bo'lmagan televizorli qabul qilish va joylashtirish hududi/joyi:	+	+	+
	- milliy telekompaniyalar	+	+	+
	- dunyo telekompaniyalari			+
57	Milliy hunarmandchilik mahsulotlari sotiladigan do'konlar va savdo shahobchalari ⁵⁾			+
58	Xodimlar uchun xizmat xonalari: ovqatlanish uchun oshxona/xona, sanuzellar, yechinish xonalari, dam olish xonalari, yordamchi xonalar	+	+	+
59	Kafe	+	+	
60	Restoran			+
Xizmatlar ³⁾				
61	Qabul qilish va joylashtirish xizmati:			
	- yashovchilarni qidirish	+	+	+
	- mehmonning iltimosiga ko'ra kutib olish va kuzatishlarni (aeroportda, vokzalda va hokazo) tashkillashtirish			+
62	Mehmon kelishi bilan uni nomergacha kuzatish	+	+	+
63	Bagajni kechayu kunduz keltirish (mashinadan nomerga va nomerdan mashinaga):			
	- majburiy			+
	- iltimosga ko'ra	+	+	+
64	Yotoq choyshablarini almashtirish:			
	- uch kunda bir marta	+	+	

	- ikki kunda bir marta			+
65	Sochiqlarni almashtirish:			
	- ikki kunda bir marta	+	+	
	- har kuni			+
66	Kir yuvish:			
	- 12 soat davomida bajarish			+
67	Dazmollash:			
	- 6 soat davomida bajarish	+	+	+
68	Kimyoviy tozalash: ⁵⁾			
	- bir sutka davomida bajarish;			+
69	Kiyimni kichik ta'mirlash		+	+
70	Ma'muriyat seyfida qimmatbaho buyumlarni saqlash	+	+	+
71	Valyuta almashtirish (kechayu kunduz) ⁵⁾			+
72	Elektron kartalar bo'yicha to'lovlarni qabul qilish	+	+	+
73	Transportning har xil turlariga chiptalarni bron qilish ⁵⁾			+
74	Teatrlar, sport, ko'ngil ochar tadbirlarga chiptalarni bron qilish ⁵⁾	+	+	+
75	Turistik xizmatlar:			
	- turistik ma'lumotlar		+	+
	- ekskursiyalar, gidlar xizmatini tashkillashtirish ⁵⁾			+
76	Bolalar maydonchasi			+
77	Yashovchilardan shikoyatlarni qabul qilish	+	+	+
78	Mehmonlarni joylashtirish xizmati yoki saytda fikr-mulohazalarni bildirish uchun ketayotgan mehmonlarni faol ravishda taklif qilish	+	+	+
Ovqatlanish xizmatlari ³⁾				
79	Xizmat ko'rsatish (yashash narxiga kiritilgan):			
	- to'liq nonushta (7.00 - 10.00)			+
	- kontinental nonushta (7.00 - 10.00)	+	+	
	- shved stoli	+	+	+
80	Taqdim qilinadigan taomlar (erta tongdagi nonushta, ikki marta, uch marta ovqatlanish) variantlaridan har qaysisini tanlash imkoniyati			+
81	Nomerda xizmat qilish:			
	- nonushta vaqtida	+	+	

	- kechayu kunduz			+
Xodimlar va ularning tayyorgarligiga doir talablar ³⁾				
82	Funksional majburiyatlar va ishning belgilangan qoidalarini qayd qiluvchi, xodimlar uchun yozma standartlar va barcha xizmatlar xodimlarining ularga rioya qilishi	+	+	+
83	Xorijiy tillarni bilish:			
	- xizmat ko‘rsatish zonasida band bo‘lgan xodimlarning rus va ingliz tillarini yetarlicha bilishi	+	+	
	- xodimlar rus va ingliz tillarini erkin bilishi			+
	- qabul qilish xizmatida kamida uchta xorijiy tillardan rus va o‘zbek tillariga tarjimani ta’minlash			+
84	Xodimlarning tashqi ko‘rinishi: xodimlarning tanituvchi uniformasi, lavozim va ism ko‘rsatib o‘tilgan xizmat beydjiklari	+	+	+
85	Joylashtirish vositasining uzluksiz ravishda ishini ta’minlash uchun xodimlar soni yetarlicha bo‘lishi kerak	+	+	+
<p>Izohlar:</p> <p>¹⁾ Joylashtirish vositasida ichki telefon aloqasi yoki xizmat ko‘rsatish xodimlarini chaqirish tugmasi bo‘lishiga ruxsat etiladi.</p> <p>²⁾ Akkreditlangan laboratoriyalarning o‘lchashlar/sinovlar bayonnomalari asosida ko‘rsatkichlar muvofiqligini tasdiqlash.</p> <p>³⁾ Binolar, tutash hududlar va joylardagi jihozlar, inshootlar, asbob-uskunalar, inventar va boshqalar belgilangan funksional talablarga mos bo‘lishi kerak.</p> <p>⁴⁾ O‘z DSt 3220 va ushbu standart talablaridan kelib chiqqan holda mehmonxona xizmatlari uchun foydalaniladigan asosiy jihoz.</p> <p>⁵⁾ Ushbu talab tegishli xizmatlarni ko‘rsatuvchi boshqa korxonalar bilan shartnoma tuzish yo‘li orqali amalga oshirilishi mumkin. Ushbu talab joylashtirish vositasi yaqinida 100 m gacha masofada talab etilayotgan xizmatlar mavjud bo‘lganda majburiy emas.</p>				

Bibliografik ma'lumotlar

SUT 03.080.30

Muhim so'zlar: modulli mehmonxonalar, nomer, tasniflash tizimi, toifa, talablar

O'zgartirishlarni ro'yxatga olish varag'i

O'zgartirish raqami	Varaq raqami (bet)				Hujjat raqami	O'zgartirish kiritilgan sana	O'zgartirish kiritilgan sana
	o'zgartirilgan	almashtirilgan	yangi	Bekor qilingan			